

NAMANGAN VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI



# NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022-YIL YANVAR-MAY***

***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



# Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022-yil yanvar -may oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-may oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 5 947,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,3 %ni tashkil etdi.

- **0,2%** — **B** — Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- **81,3%** — **C** — Ishlab chiqaradigan sanoat
- **17,7%** — **D** — Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash
- **0,8%** — **E** — Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da

| | *2021-yil yanvar-may* | *2022-yil yanvar-may* |
|---|---|---|
| B | 60,9% | 19,1 % |
| C | 110,6% | 101,7 % |
| D | 102,0% | 142,6 % |
| E | 77,7% | 102,5 % |

**Eslatma:** *Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib,* elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash *sanoati 42,6 % ga o‘sishi hisoblanadi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**yanvar-may**

**2022-yil**
**10,1 mlrd. so‘m**

**2022-yil**
**19,1%**

**2021-yil**
**15,8 mlrd. so‘m**

**2021- yil**
**60,9%**

**B**

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,1 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 %ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**

**2021-yil**
**B**
**0,3%**

**2022-yil**
**B**
**0,2%**

**yanvar-may**

## Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so‘m | yanvar-may | FHI,%da




*2022-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 833,3 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,3 % ini tashkil etdi.*

**2021-yil yanvar-may** 84,5 %

**2022-yil yanvar-may** 81,3%

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 %ni (2021-yilning yanvar-may oylarida – 1,7 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 6,7 % (6,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 13,5% (13,4%) va quyi texnologiyalisi – 78,6 % (78,1 %)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 40,3 % (2021-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 19,8 % (2021-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,4 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,7 % (2021-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 96,7 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,0 % (2021-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 69,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,5 % (2021-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 84,8 %) ni tashkil etdi*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korhonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari


















Omuxta yem ming t




Aroq ming litr 100% spirt




Uzum vinosi ming l




Paxta tolasi, ming tonna




Paxta chigiti , ming tonna




Paxta linti ming t




*2022-yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 52,2 ming tonna bug‘doy uni ishlab chiqarilgan bo‘lib, (2021-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 3,2 % ga kamaygan ), 10,6 ming tonna paxta tolasi (49,1 % kamaygan), 6,7 ming. tonna yog‘ mahsulotlari (24,0 % ga ortgan) hamda 20,7 ming tonna paxta chigiti (51,2 %ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-may | 2022-yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Omuxta yem, ming tonna** | 24,2 | 25,6 | 1,4 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.** | 53,9 | 52,2 | -1,7 |
| **Paxta tolasi, ming t.** | 20,8 | 10,6 | -10,2 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.** | 5,4 | 6,7 | 1,3 |

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati 43,2 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 1,0 %ni, 2022-yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati 55,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 1,2% ni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 307,0 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 7,4 % ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 332,2 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 6,9 %ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 920,9 mlrd so'mni, joriy 2022-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1045,5 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 13,6 %ga ortgan.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 131,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 130,8 mlrd. so‘mni tashkil etib 0,2 mlrd. so‘mga kamaygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 2,7 %ni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-may oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 1182,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, uning jami ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 28,6 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-may oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 1660,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 34,4 %ni tashkil etdi va 5,8 punktga ko‘paydi .*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,2 %ni yani jami 712,6 mlrd so‘mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-may oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 13,7 % ni tashkil etib 662,2 mlrd. so‘mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o‘tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 50,4 mlrd. so‘mga kamaygan.*



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 114,8 mlrd. so‘mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-may oylarida Namangan viloyati bo‘yicha 133,6 mlrd. so‘mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 2,8 %ni, tashkil etdi.*




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




*2021-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 3,9 mlrd. so‘mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 0,1 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-may oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 0,9 mlrd. so‘mga ko‘payib, 4,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,7 %ni yani 83,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-may oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o‘tgan yilga nisbatan 10,4 mlrd. so‘mga kamaygan va 73,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1051,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 17,7%ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 355,9 mlrd so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-may | 2022-yil yanvar-may | Farqi (+/-) |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 2710,8 | 2349,1 | -361,7 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 42,4 | 34,6 | -7,8 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,7 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 %ini) tashkil etdi.




| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-may | 2022-yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m*** | 30,9 | 35,6 | 4,7 |
| **Shahar xo‘jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig’ish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m*** | 9,9 | 8,7 | -1,2 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 4,7 mlrd. so‘m yoki 15,2 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 1,2 mlrd. so‘m 12,2%ga kamaygan.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3148,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish 112,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 52,9 % ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

| | |
|---|---|
| **2021-yil yanvar-may** | **34,6%** |
| **2022-yil yanvar-may** | **33,1%** |

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

| | |
|---|---|
| **2021-yil yanvar-may** | **65,4%** |
| **2022-yil yanvar-may** | **66,9%** |

*Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 41,1 % ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 9,6 % ni, Chust tumani 8,4 % ni, Namangan tumani 8,3 %, Kosonsoy tumani 7,4 % ni tashkil etdi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 1292,4 mlrd. so‘mni yoki jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 41,1 %i, To‘raqo‘rg‘on tumanida 303,1 mlrd so‘mni jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 9,6 %i shuningdek, Chust tumanida 264,9 mlrd. so‘mlik, 8,4 %ni tashkil etdi.*




*2 792,1 mlrd. so‘m*

*2021-yil yanvar-may*

*3 448,3 mlrd. so‘m*

*2022-yil yanvar-may*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** **114,8 %**

**2022-yil** **112,8 %**

## Namangan viloyati hududlari kesimida Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 35,2 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 21,4 %ni, Chust tumani 7,8 %ni, Uchqo'rg'on tumani 6,7 % tashkil etdi.*

### Namangan viloyati

**2021-yil**
*4897,2 mlrd. so'm*

**2022-yil**
*5947,0 mlrd. so'm*

*yanvar-may*



**2021-yil** — 108,9 %

**2022-yil** — 108,2 %

| Hudud | mlrd. so'm | FHI, %da |
|---|---|---|
| Mingbuloq | 313,7 | 100,2 |
| Kosonsoy | 270,7 | 110,5 |
| Namangan t. | 334,5 | 96,8 |
| Norin | 88,5 | 114,2 |
| Pop | 173,6 | 100,8 |
| To'raqo'rg'on | 1273,0 | 118,1 |
| Uychi | 361,6 | 99,3 |
| Uchqo'rg'on | 395,7 | 108,0 |
| Chortoq | 124,9 | 101,5 |
| Chust | 463,7 | 108,5 |
| Yangiqo'rg'on | 84,5 | 106,2 |
| Namangan sh. | 2096,2 | 100,4 |

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 39,0% shuningdek, To‘raqo‘rg‘on tumani 13,1 %, Chust tumani 10,9 %ni tashkil etadi.*

**1826,1** *mlrd. so‘m*

*2021-yil yanvar-may*

**2106,7** *mlrd. so‘m*

*2022-yil yanvar-may*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

2021-yil 119,5 %

2022-yil 115,4 %



## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib 45,2 %ni, shuningdek, Uchqo‘rg‘on tumani 10,8% ni, Namangan tumani esa 9,8 %ni tashkil etdi.*




*o‘sish sur’ati* — *mlrd. so‘m*

***966,0*** *mlrd. so‘m*

*2021-yil yanvar-may*

***1041,6*** *mlrd. so‘m*

*2022-yil yanvar-may*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** **108,1 %**

**2022-yil** **107,8 %**

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To‘raqo‘rg‘on tumani (5 435,4 ming so‘m), Namangan shahrida (3 162,4 ming so‘m), Mingbuloq (2 385,8 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (2 024,2 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*




### Namangan viloyati

2021-yil — 1679,6 ming. so‘m

2022-yil — 2024,2 ming. so‘m



2021-yil — 106,7 %

2022-yil — 105,8 %

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Namangan viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1071,6 ming so‘m bo‘lgani holda, Namangan shahrida – 1949,7 ming so‘mni, Mingbuloq tumanida 1525,8 – Namangan tumanida 1427,0 ming so‘mni, tashkil etdi.*

### Namangan viloyati

**2021-yil**
889,0 ming. so‘m

**2022- yil**
1071,6 ming. so‘m



**2021-yil** 112,6 %

**2022-yil** 110,3 %




*o’sish sur’ati*    *ming. so‘m*

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2022-yilning yanvar –may oylarida %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2511,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 42,2 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo`rg`on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Mingbuloq (93,7 %) va Uychi (69,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng kichkina ulush To‘raqo‘rg‘on (9,2 %), Uchqo‘rg‘on (17,4 %), Norin (35,8 %) va Chust (36,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin



## Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 7 386 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2 809 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,0 % i) Namangan shahriga, 555 tasi (7,5 %) Uychi tumaniga, 554 tasi (7,5 %) Kosonsoy tumaniga, 540 tasi (7,3 %) Namangan tumaniga, 533 tasi (7,2 %) Chust tumaniga, 473 tasi (6,4 %) To‘raqo‘rg‘on tumaniga to‘gri kelmoqda.




### Jami yangi tashkil etilgan

**2021-yil** — 792 dona

**2022-yil** — 688 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2021-yil** — 6984 dona

**2022-yil** — 7386 dona